

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 54 076,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-dekabr oylari bilan taqqoslaganda 7,2 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-dekabr oylari narxlariga nisbatan 109,0 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qoraqalpog'iston Respublikasining qo'shgan hissasi 2,9 % ga yetdi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



-  YAHM o'sish sur'ati
-  YAHM hajmi
-  YAHM deflyator indeksi
-  YAIMga qo'shgan hissasi



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2024- yil	2025- yil	
I. YAHM, jami	46 299,8	54 076,9	107,2
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	45 085,5	52 921,0	107,1
mahsulotlarga sof soliqlar	1 214,3	1 155,9	110,5
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	45 085,5	52 921,0	107,1
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	10 469,2	12 200,9	104,7
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	12 790,0	14 462,9	106,8
sanoat	9 254,4	10 354,0	105,3
qurilish	3 535,6	4 108,9	110,7
xizmatlar	21 826,3	26 257,2	108,4
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8 015,5	9 598,1	111,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 872,9	3 675,6	119,0
boshqa xizmat tarmoqlari	10 937,9	12 983,5	103,5

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 26 489,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 5,9 % ga yuqoridir.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi
(ming so'mda)



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2024- yil	2025- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,4	97,9
mahsulotlarga sof soliqlar	2,6	2,1
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	23,2	23,1
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	28,3	27,4
sanoat	20,5	19,6
qurilish	7,8	7,8
xizmatlar	48,5	49,5
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	17,8	18,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,4	6,9
boshqa xizmat tarmoqlari	24,3	24,5




2025- yilning yanvar-dekabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,1 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 23,1 % ni, sanoat tarmog'i 19,6 % ni, qurilish 7,8 % ni va xizmatlar sohasi 49,5 % ni tashkil qildi.

Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2024- yil



2025- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,1 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 0,9 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,1 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 1,2 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,8 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – salbiy 0,1 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,9 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 2,1 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,7 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 23,1 %), sanoatda – 105,3 % (19,6 %), qurilishda – 110,7 % (7,8 %), xizmatlar sohasida – 108,4 % ni (49,5 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 111,3 % (18,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 119,0 % (6,9 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,5 % dan (24,5 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-dekabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024- y.

2025- y.



4,2 %

YAHM

7,2 %



3,6 %

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi

4,7 %



6,2 %

Sanoat

5,3 %



-0,7 %

Qurilish

10,7 %




4,7 %

Xizmatlar

8,4 %

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-dekabr oylaridagi narxlarga nisbatan 109,0 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 111,3 % va xizmatlarda – 111,0 % qayd etildi.

Yanvar-dekabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik 34 657,7 mlrd. so'mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-dekabr oylarida – 29 776,9 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 65,5 % ni (2024- yilning yanvar-dekabr oylarida – 66,0 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining o'sishi bilan bog'liq.

Yanvar-dekabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.so'm

Ulushi, % da

2024- yil

29 776,9

66,0 %

2025- yil

34 657,7

65,5 %

